

O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLARIDA XOTIN-QIZLAR SOG'LIG'INI SAQLASH MUAMMOLARI

Aliyeva Fotima Shuxrat qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15266900>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning janubiy viloyatlarida xotin-qizlar sog'lig'ini saqlashda uchrayotgan asosiy muammolar tahlil etiladi. Hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, tibbiy xizmatlarning sifati, ayollarning sog'lom turmush tarzi borasidagi bilim va ko'nikmalari, erta nikohlar, reproduktiv salomatlik, onalik va bolalikni muhofaza qilish borasidagi amaliy holatlar yoritiladi. Tibbiy infratuzilma yetishmovchiligi, gender tenglik darajasi, ekologik muhit ta'siri, xotin-qizlarning huquqiy va ijtimoiy faolligi kabi omillar sog'liqni saqlash tizimining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ham bayon etiladi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar sog'lig'i, janubiy viloyatlar, reproduktiv salomatlik, gender tengligi, erta nikoh, tibbiy xizmatlar, onalik, ijtimoiy-iqtisodiy muhit.

Xotin-qizlar sog'lig'i har qanday jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, demografik barqarorligi va genofondining sog'lom rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Aholining salomatligi, ayniqsa, ayollar sog'lig'i mamlakatda sog'liqni saqlash tizimining qanchalik samarali ishlashini bevosita aks ettiradi. Xotin-qizlarning sog'lig'ini saqlash, ularni sifatli tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash, ularning hayot sifati va farovonligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, reproduktiv salomatlikni himoya qilish, onalik va bolalikni muhofaza qilish sohalarida muhim islohotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, mamlakatning ayrim mintaqalarida, ayniqsa, janubiy viloyatlarida hali ham bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bu muammolar qatoriga sog'liqni saqlash infratuzilmasining yetarli emasligi, malakali tibbiyot xodimlari tanqisligi, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik, ekologik xavflar, ayollarning sog'lom turmush tarzi borasidagi bilim va ko'nikmalarining pastligi, erta nikoh va erta homiladorlik kabi omillar kiradi.

Xususan, Surxondaryo viloyatining tog'li va chekka hududlarida yashovchi ayollar orasida onalik bilan bog'liq asoratlar, kamqonlik, gormonal buzilishlar va bepushtlik hollari yuqoriligicha qolmoqda. Shuningdek, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida ham erkaklar ustunlik qiladigan ijtimoiy munosabatlar, sog'liqni saqlash xizmatlariga ayollar tomonidan murojaat qilishda madaniy va oilaviy to'siqlar mavjud. Bu esa ayollarning sog'lig'ini vaqtida tiklash, profilaktik choralarni ko'rish va sog'liqni nazorat qilish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Mazkur maqolada janubiy viloyatlarda xotin-qizlar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq muammolar har tomonlama o'rganiladi, bu boradagi mavjud statistik ma'lumotlar va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi hamda dolzarb muammolarning yechimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Xotin-qizlar salomatligini saqlash masalasi dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri hisoblanib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSSST) ma'lumotlariga ko'ra, ayollar sog'lig'ining holati bevosita mamlakatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan

chambarchas bog'liqdir. Xususan, JSST tomonidan e'lon qilingan 2022-yilgi hisobotda ayollar sog'lig'ini saqlashdagi asosiy muammolar qatoriga reproduktiv salomatlik, prenatal va postnatal parvarishning yetarli emasligi, sog'liqni saqlash xizmatlariga teng kirish imkoniyatining yo'qligi va sog'liqni saqlash tizimidagi gender tengsizliklar keltiriladi.

O'zbekistonda ham bu boradagi muammolar bir necha ilmiy izlanishlarda o'rganilgan. Tibbiyot fanlari doktori O. Ataniyozova tomonidan olib borilgan izlanishlarda Orolbo'yi hududidagi ekologik inqiroz ayollar reproduktiv salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ko'rsatib o'tilgan. Uning tadqiqotlarida ayniqsa, ekologik omillar, suv va oziq-ovqat sifati ayollar va homilador ayollarda salomatlik muammolariga olib kelayotgani ta'kidlangan.

Shuningdek, I. Karimova (2020) o'zining "Reproduktiv salomatlik va ayollar ijtimoiy faolligi" nomli ilmiy maqolasida sog'liqni saqlash tizimidagi xizmatlarning markazlashganligi, chekka hududlarda diagnostika va skrining xizmatlarining yo'qligi ayollar salomatligining pasayishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi. Muallif Qashqadaryo viloyatida erta nikoh, erta homiladorlik va oilaviy zo'ravonlik hollari salomatlikka jiddiy ta'sir qilayotganini isbotlab bergan.

A. Shukurova va B. Yusupovning (2021) Janubiy viloyatlar salomatlik infratuzilmasi haqidagi maqolalarida esa malakali ginekologlar, terapevtlar va psixologlar yetishmovchiligi, ayollar orasida sog'liqni muntazam nazorat qilish odatining pastligi, profilaktik ko'riklar madaniyatining shakllanmaganligi qayd etilgan. Ular, shuningdek, ayollar salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi psixologik bosim, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy chekinish holatlarini ham muhim tahliliy mezon sifatida ko'rsatadilar.

Bundan tashqari, UNFPA va ADB kabi xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda ayollar salomatligi, gender tengligi va sog'liqni saqlashdagi islohotlar holatini yorituvchi statistik ma'lumotlar va tahliliy hisobotlar chop etgan. Bu manbalarda ayollarga nisbatan tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, urban va rural hududlardagi tafovutlar, sog'liqni saqlash xodimlarining malakasi va aholining sog'lom turmush tarzi haqidagi xabardorligi batafsil ko'rsatib berilgan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar janubiy viloyatlardagi xotin-qizlar sog'lig'i bilan bog'liq muammolar ko'p qirrali va chuqur ildizlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Ularni hal qilish uchun esa kompleks yondashuv, ilmiy asoslangan strategiyalar va ijtimoiy ko'mak tizimi zarurligi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'likni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangani ham soha rivojida katta voqea bo'ldi. Ushbu konsepsiyani ishlab chiqishda mamlakat sog'liqni saqlash tizimidagi holat chuqur tahlil qilindi. 20 dan ziyod rivojlangan mamlakatlarning sohadagi tajribasi o'rganildi.

Onalar o'limi intensiv ko'rsatkichi (100 ming tirik tug'ilgan bolaga nisbatan) 1991 yilda 65,3 ni tashkil qilgan bo'lsa, 1997 yilda 28,1 ga tushgan. Respublika bo'yicha tug'ish yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish yuzasidan ko'rilgan tadbirlar tug'ruqlar dinamikasini 5,1% kamaytirdi, abortlar dinamikasi 16,9% kamaytirib, ular nisbatini 1:8 ga tushirdi.

Biroq Surxondaryo (30,4), Samarqand (25,8), Qashqadaryo (29,1), Jizzax (25,6), Namangan (25,6), Farg'ona (25,4), Xorazm (25,1) viloyatlarining ko'rsatkichi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan hamon yuqoridir.

Respublika bo'yicha 1997 yilda homiladorlik, tug'ruq va tuqqandan keyingi davrlarda 171 ayol o'lgan, onalar o'limining o'sishi QQR da 57,2, Navoiy viloyatida 37,6, Buxoro 34,4, Surxondaryo viloyatida 34,3 ni tashkil etdi. Zamonaviy perinatal texnologiyani joriy qilish (ona va bolaning birga bo'lishi, chaqaloqqa barvaqt ko'krak berish), ko'krak suti bilan boqishni keng yo'lga qo'yish ishlari amaliyotga keng targ'ib qilindi.

1998 yilda mamlakatimiz aholisiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratish, respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining viloyat va tuman darajalaridagi tibbiyot muassasalari bilan kasalliklarni profilaktika, diagnostika qilish hamda davolash masalalaridagi o'zaro vertikal aloqasini mustahkamlash vazifalari parlament va jamoatchilik nazoratining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirilmoqda. Xotin qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Samarqand, Navoiy, Buxoro, Andijon viloyatlari kotibiyatlari tomonidan mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Shu sababdan ushbu xududlardagi tug'ish yoshidagi ayollarning 70-80 % turli ekstragenital kasalliklar bilan xastalanganligi kuzatilmoqda. Onalar o'limi ko'rsatkichlari Toshkent shahrida (38,0/61,2), Jizzax (30,2/33,5), Qashqadaryo (30,1/45,6), Toshkent (20,9/31,5), Xorazm (16,1/21,3) viloyatlarida (Respublika bo'yicha 28,6/31,0), abortlar soni esa Jizzax viloyati (+453) ortib ketgan.

Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya hamda Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari faoliyati va imkoniyatlarini, mavjud muammolar hamda aholining talab va ehtiyojlarini Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'rganib chiqildi va Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi tomonidan har yili 10 ming nafardan ziyod xotin-qizlarga, shu jumladan, homilador ayollarga statsionar yordam ko'rsatildi. Har yili 63 ming nafardan ziyod ayol ambulatoriya sharoitida malakali maslahat olish yo'lga qo'yildi. Mazkur markaz mutaxassislari tomonidan 2017 yilda 37 marta joylarga chiqishlar tashkil etildi, ular doirasida 8142 nafar bemor malakali tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Xususan, birgina «sog'lom avlod» davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar salmog'i ham chin ma'noda asrlarga tatigulikdir. Jumladan, Guliston shahrida 2,8 million AQSH dollari qiymatidagi zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jixozlangan reabilitatsiya markazi ishga tushurildi. Poytaxtimizda Akusherlik va ginekologiya ilmiy-tekshirish instituti poliklinikasi hamda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzurida Perenatal markazi tashkil etilib, ayollarga yuqori malakali tibbiy yordam ko'rsatila boshlandi. Farg'ona viloyatining Beshariq tumanida barcha qulayliklarni o'zida jamlagan «Ona va bola» markazi xalqqa xizmat qilmokda. 1,2 mln AQSH dollariga keltirilgan tibbiyot uskunalari o'rnatilgan Nurota tumani markaziy kasalxonasining tug'ruq majmuida yuzlab chaqaloqlar sog'-omon yorug' dunyo yuzini ko'rdi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida xotin-qizlar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq muammolar nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan ham bevosita bog'liqdir. Ayollar salomatligi masalasi faqatgina sog'liqni saqlash muassasalarining faoliyati yoki texnik infratuzilma bilan emas, balki ayol shaxsining ijtimoiy hayotdagi o'rni, huquqiy maqomi, bilim saviyasi va jamiyatdagi qadrlanishi bilan ham belgilanadi.

Janubiy viloyatlardagi sog'liqni saqlash infratuzilmasining yetarli emasligi, profilaktik tibbiy ko'riklarning sustligi va malakali mutaxassislar tanqisligi – ayollarning sog'lom turmush kechirish imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Ayni paytda, davlat tomonidan sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish borasida bir qancha strategik hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularning mahalliy darajada to'liq va izchil amalga oshirilmasligi sababli natijadorlik sust bo'lib qolmoqda.

Ayollar sog'lig'i bilan bog'liq muammolar ko'pincha oila ichidagi patriarxal munosabatlar, gender stereotiplari, erta nikoh, erkak dominatsiyasi va diniy-ma'naviy cheklovlar sababli yanada chuqurlashadi. Ayollarning mustaqil ravishda tibbiy yordamga murojaat qilolmasligi ularning sog'lig'i va huquqlariga bevosita tajovuz hisoblanadi. Bunday holatlarda sog'liqni saqlash muammosi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy tenglik va inson huquqlari masalasi sifatida qaralishi zarur.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), UNFPA va UNICEF kabi tashkilotlar taqdim etgan xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar salomatligini yaxshilash uchun quyidagi yondashuvlar eng samarali hisoblanadi:

- Sog'liqni saqlash tizimini jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish, ayniqsa ayollarning talablarini hisobga olish;
- Ayollarga nisbatan tibbiy xizmatlar haqida keng jamoatchilikka ma'lumot berish, sog'lom turmush targ'ibotini kuchaytirish;
- Oila a'zolarini, ayniqsa erkaklarni ayollar sog'lig'i masalalariga jalb qilish;
- Mahalla va fuqarolik jamiyati institutlarini sog'liqni saqlash bo'yicha monitoring va axborot kampaniyalariga jalb etish.

Bu tajribalarning ko'pchiligini O'zbekiston sharoitida ham bosqichma-bosqich joriy qilish mumkin.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ekologik sharoitning yomonligi, ichimlik suvining ifloslanishi va past gigiyenik madaniyat ayollarning salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, bu hududlarda aholi zichligi yuqori, tibbiy xizmat ko'rsatish nuqtalari esa kam. Bu esa havo, suv va oziq-ovqat muhitidagi xavflarning sog'liqqa ta'sirini kuchaytiradi.

Ayollar sog'lig'ini saqlash muammolari – bu faqatgina tibbiy texnologiyalar, mutaxassislar yoki infratuzilma bilan bog'liq muammo emas, balki kompleks ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlar o'zaro ta'sirining natijasidir. Shu sababli, yechimlar ham multidisiplinar yondashuv asosida ishlab chiqilishi lozim.

Yuqorida olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonning janubiy viloyatlarida xotin-qizlar sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq muammolar ko'p qirrali, murakkab va o'zaro bog'liq omillar majmuasidan iborat. Sog'liqni saqlash tizimidagi infratuzilma va malakali kadrlar yetishmovchiligi, erta nikoh va homiladorlik, sog'liqni nazorat qilish madaniyatining pastligi, ayollarning ijtimoiy-huquqiy maqomi va ularning sog'liq ustidan qaror qabul qilishdagi cheklovlari mavjud muammolarning asosiy ildizlaridandir.

Tadqiqot davomida aniqlangan holatlar shuni ko'rsatadiki, mazkur mintaqalarda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar ko'proq markaziy darajada aks etmoqda, mahalliy sharoitlar va ehtiyojlar esa to'liq hisobga olinmayapti. Shu bois sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirish nafaqat texnik va tashkiliy choralarni, balki ijtimoiy ongni

o'zgartirish, gender tengligini ta'minlash, fuqarolik jamiyatini faol jalb qilish bilan uyg'un holda olib borilishi kerak.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). Women's health and well-being in Europe: beyond the mortality advantage. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe; 2022.
2. Ataniyozova O. Orolbo'yi ekologik inqirozi va ayollar salomatligi. Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2018.
3. Karimova I. Reprodukativ salomatlik va ayollar ijtimoiy faolligi. "Tibbiyot va jamiyat" jurnali, 2020, №3, 45–50-betlar.
4. Shukurova A., Yusupov B. Sog'liqni saqlash infratuzilmasining hududiy xususiyatlari: Janubiy viloyatlar misolida. "Geografiya va hayot", 2021, №2, 22–28-betlar.
5. UNFPA Uzbekistan. Reproductive Health Survey: Summary of Findings. Toshkent: UNFPA, 2021.
6. Asian Development Bank. Country Gender Assessment: Uzbekistan. Manila: ADB, 2020. <https://www.adb.org>
7. UNICEF Uzbekistan. Women and Children in Uzbekistan: Health and Social Indicators. Toshkent: UNICEF, 2022.
8. Sog'liqni saqlash vazirligi. 2023-yilgi Respublika sog'liqni saqlash hisobotlari. Toshkent: SSV nashriyoti, 2024.
9. Amonova S. Gender tenglik va salomatlik: O'zbekiston tajribasi. "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 2022, №4, 15–21-betlar.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Mahalliy sog'liqni saqlash tizimining barqarorligi. Tahliliy ma'ruza, 2023.
11. O'zbekistonda sog'liqni saqlash. //T., № 9 (1238). 2019 yil 8 mart.
12. O'zbekiston Milliy Arxivi, M-15-fond, 1-ro'yxat, 1382-ish, 109-varaq
13. O'zbekiston Milliy Arxivi, 37-fond, 1-ro'yhat (davomi), 5486-ish, 3-varaq.
14. «Xalq so'zi» 14 aprel 2017 yil
15. O'zbekistonda sog'liqni saqlash. T., № 1(309) 2003-yil 7-13 yanvar